

электронное периодическое издание

ЭКОНОМИКА

и

социум

ISSN 2225-1545

№3(94)-2022



ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ
«Экономика и социум»

<http://www.iupr.ru>

УДК 004.02:004.5:004.9

коммуникации
ББК 73+65.9+60.5

ISSN 2225-1545

Свидетельство о регистрации
средства массовой

Эл № ФС77-45777

от 07 июля 2011 г.

Редакционный совет:

Абдувохидов Ф.М., доктор фил.наук в области искусствоведения (PhD),

Аллаяров С.Р., доктор философии по экономическим наукам (PhD),

Арысланбаева З.Е., доктор филологических наук (PhD), доцент,

Вестов Ф. А., кандидат юридических наук, профессор,

Ёрматов Ф.Ж., кандидат исторических наук(PhD), доцент,

Зарайский А.А., доктор филологических наук, профессор,

Ирисметов Б.М., доктор филологических наук (PhD), доцент,

Калимбетов Х.К., доктор экономических наук, доцент,

Кудияров К.Р., доктор экономических наук, (PhD),

Нишанова О.Д., доктор филологических наук (PhD), доцент,

Смирнова Т.В., доктор социологических наук, профессор,

Федорова Ю.В., доктор экономических наук, профессор,

Постюшков А.В., доктор экономических наук, профессор,

Саттаров А.У., кандидат географических наук, доцент,

Туйчиев Г.У., кандидат медицинских наук, доцент,

Тягунова Л.А., кандидат философских наук, доцент,

Усаров Ж.Э., доктор педагогических наук (DSc),

Шошин С.В., кандидат юридических наук.

Отв. ред. А.А. Зарайский

Выпуск №3(94)-2 (март, 2022). Сайт: <http://www.iupr.ru>

© Институт управления и социально-экономического развития, 2022

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ

*Kurbanova Z.I.
Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-DOLZARB VAZIFAMIZ

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning vazifalari, muammolari haqida muhim ma'lumotlar xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, intellektual salohiyat, iqtidor, qobiliyat, multimediyali ta'lim.

*Kurbanova Z.I.
lecturer
department of preschool education
Bukhara State University*

USE OF MODERN PEDAGOGICAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS - OUR MISSION

Annotation. This article provides important information, conclusions and recommendations on the tasks and problems of using modern pedagogical and information technologies to improve the quality of education in preschool education.

Keywords: pedagogical technology, information technology, intellectual potential, talent, ability, multimedia education.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularning har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishga aylangan.

Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish,

bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan.

Shulardan biri O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ta'lim turlari sanab o'tilib, uning birinchi turi - "Maktabgacha ta'lim" ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi", - deyilgan Chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. «Maktabgacha ta'lim» atamasi 1997 yilda YUNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichini tashkil etadi.

Bu albatta quvonarli hol. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kundagi dolzarb vazifa deb bejizga aytilmagan. Hozirgi davrimiz texnologiya asri bo'lganligi uchun har bir tarbiyalanuvchining zamon bilan hamnafas qilib o'stirish maqsadida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 9-moddasida "Barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi", - deb aytilgan. Shuningdek YUNISEF tashkilotining «Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi»da MTTlarining ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.

Yuqorida bayon qilingan dalillar MTT bolalarida kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter bilan elementar tarzda muomala qilishga o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar. MTTlarida multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o'zining nazorati ostida "Sichqoncha" yordamida turli ta'lim o'yinlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga o'xshash vazifalarni bajartirishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar "Sichqoncha"dan foydalanish bo'yicha to'la amaliy malaka va ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

MTT tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan

foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimni baholash ham kompyuter xotirasiga kiritilgan test savollari, rasmlar, o'yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to'g'ri javob topishlari shart.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi pedagogik yangiliklar tajribasini, psixologik va pedagogik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirishni talab qiladi. Bu muammoni hal qilish usullaridan biri bu bolalar bilan ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning texnologik yondashuvidir. Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiya - ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun shakllar, usullar, texnikalar, o'quv vositalarining kompleksini anglatadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati quyidagi sabablarga bog'liq:

- Pedagogik texnologiyaning ahamiyati shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlarini baholashning zamonaviy yondashuvlarini aniqlaydi;

- Shaxsiy va tabaqalashtirilgan vazifalar uchun sharoit yaratadi.

Bugungi kunda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yilgan. Maktabgacha yosh-bu shaxsning poydevori qo'yilgan, irodasi rivojlangan va ijtimoiy kompetentsiyasi shakllanadigan o'ziga xos va hal qiluvchi davr.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTTlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bunda esa bizga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarurati paydo bo'lar ekan. Biz yuqorida sanab o'tgan barcha jabhalarda ta'lim sifatini oshirishda ulardan foydalanish eng sifatli samarali va yagona usul ekanligiga amin bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'RQning 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 16.12.2019 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI" 22.12.2020 yil.
3. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" T-2019 132-133 b
4. Asqarova.D.Q. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" T-2020 13-17b
5. Qurbonova. Z.I. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education." nomli Ilmiy maqola -International Journal of Culture and Modernity" ISSN 2697-2131, Volume 11 47,48,49 b. Испания 2021
6. Д.Ш.Мирзаева З.И.Курбанова "Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021.1206-1212b.
7. Mirzayeva D.Sh. Nasimova N.Q. and Hakimova N.S "Арт –педагогика для дошкольников". Scientific progress 2.7(2021) 1201-1205
8. Raxmonova G.S.Hakimova.N.S. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanish// Oriental renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences.-2022.-T.2.-C.67-72
9. Mamedova M. M. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 1230-1234.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ

Kurbanova Z.I., MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-DOLZARB VAZIFAMIZ	1035
Nabiyeva N.M., COOPERATION OF BUSINESS ENTITIES IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN	1039
Абрамов И.В., Абрамова Н.В., ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ (СУП)	1050
Абрамов И.В., Абрамова Н.В., РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ УЧЕТА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ПРОЦЕССОВ	1065
Ильясов У.Б., ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И СУЩНОСТЬ КВАЗИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРАВООТНОШЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	1088
Исаев Х., Танибердиев Ф.Р., Хамраева С.А., ТУРЛИ ТАРКИБЛИ АРАЛАШМАЛАРДАН ОЛИНГАН ИПЛАРНИНГ НОТЕКИСЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ	1101
Исаева М.Х., ТУРЛИ ТОЛАЛАР ВА ИККИЛАМЧИ МАТЕРИАЛ РЕСУРСЛАРИДАН ОЛИНГАН ТЎҚИМАНИНГ ТЕХНОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ	1106
Танибердиев Ф.Р., Исаев Х., Хамраева С.А., ТУРЛИ ТАРКИБЛИ АРАЛАШМАЛАРДАН ОЛИНГАН ИПЛАРНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ	1110
Убайдуллаева Д.Х., Ишанова З.Р., Абдурахимова М.М., Жуманиязов М.Б., ФУТЕР ТРИКОТАЖ ТЎҚИМАСИНИНГ ФИЗИК-МЕХАНИК ХУСУСИЯТЛАРИ	1115
Хайдаров У.П., Исмоилова С.И., Ортиқалиева О.Ф., ТУРЛИ ТОЛА ТАРКИБЛИ КЎЙЛАКБОП МАТОЛАРНИНГ ТЕХНОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ	1121
Хайдаров У.П., Исмоилова С.И., Ортиқалиева О.Ф., ТУРЛИ ТОЛА ТАРКИБЛИ КЎЙЛАКБОП МАТОЛАРНИНГ МЕХАНИК ХОССАЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ	1126

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПОЛИТИКИ И ПРАВА

Ortiqov O.R., MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA).....	1130
---	------